

## **BOTIR ZOKIROV ASARLARINING YOSH XONANDALAR VOKAL VA IJROCHILIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

**Muxtorov Ilhomjon Zoirjon o'g'li**

*O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi MESI Estrada xonandaligi:  
professional ta'lim : vokal sanati 3 - bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Botir Zokirov ijodining o'ziga xos jihatlari hamda uning asarlarining yosh xonandalar vokal tayyorgarligi va ijrochilik mahoratini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Zokirov ijodidagi uslubiy xususiyatlar, vokal texnikasi, sahna madaniyati va interpretatsiya masalalari ilmiy asosda yoritiladi. O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirovning xotirasini abadiylashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar hamda qabul qilinayotgan qarorlar to'g'risida ham ma'lumotlar batafsil yoritilgan<sup>1</sup>.*

**Kalit so'zlar:** *vokal san'ati, ijrochilik mahorati, sahna madaniyati, milliy musiqa, interpretatsiya, vokal texnika, cholg'u ijrochiligi, texnogen*

### **KIRISH**

O'zbek estrada va vokal san'atining rivojida Botir Zokirov alohida o'rin egallaydi. U nafaqat betakror ovoz sohibi, balki sahna madaniyati, ijro uslubi va musiqiy tafakkuri bilan ham yosh ijrochilar uchun maktab yaratgan san'atkorlardan biridir. Bugungi kunda yosh xonandalar vokal mahoratini oshirishda milliy va zamonaviy ijrochilik an'analarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Botir Zokirov ijodini o'rganish va uni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonga estrada san'atining kirib kelishida va uning rivojida milliy estrada san'atimiz asoschisi, o'z san'ati va ijtimoiy faoliyati bilan xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shgan buyuk san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirovning xizmatlari beqiyosdir.

Botir Zokirov ijodiy merosining yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadryatlar ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan ahamiyatini inobatga olib tavalludining 85 yilligini keng nishonlash va xotirasini abadiylashtirish maqsadida juda ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, "O'zbekkino" Milliy agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Badiiy akademiya, Yoshlar ishlari agentligi hamda jamoatchilik vakillarining 2021-yilda O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi taklifi va tadbirni nishonlash

<sup>1</sup> O'ZBEK MILLIY ESTRADA SAN'ATIGA ULKAN HISSA QO'SHGAN O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI BOTIR ZOKIROV IJODIGA BIR NAZAR  
Shomuradov Anvar Islomovich Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan maqullandi hamda tasdiqlandi<sup>2</sup>.

XX asr o'zbek san'ati tarixida Botir Zokirov nomi alohida hurmat bilan tilga olinadi. U xonanda, aktyor, rejissyor, tarjimon va madaniyat targ'ibotchisi sifatida o'zbek musiqa madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Uning ijodiy faoliyati o'zbek estradasining professional sahna san'atiga aylanishida muhim bosqich bo'lib, milliy va jahon musiqasi uyg'unlashgan yangi badiiy talqinlarni yaratishda asosiy omil bo'lgan. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, Botir Zokirov ijodi nafaqat tarixiy-badiiy meros, balki hozirgi zamon o'zbek musiqa san'ati uchun metodologik negizdir. Ilg'or vokal texnikasi, ko'p tillilik, dramatik talqin va jahon musiqiy tajribasining o'zbek sahnasiga olib kirilishi — bularning barchasi san'atkor faoliyatining kompleks ilmiy o'rganilishini talab qiladi.

Oila va madaniy muhitning ta'siri Botir Zokirov san'atkorlar oilasida voyaga yetdi. Zokirovlar sulolasi o'zbek madaniy hayotida mashhur bo'lib, bu hol san'atkor shaxsining erta ijodiy yetilishiga zamin yaratgan. Unga o'smirlik davridan boshlab musiqiy tarbiya berilgan, bu esa kelajakdagi professional mahoratining shakllanishiga asos bo'lgan.

Vokal san'atida ijrochilik mahorati - bu ijrochining texnik, badiiy, psixologik va estetik imkoniyatlarini bir butun holda namoyon eta olish qobiliyatidir. Uni rivojlantirish jarayoni tizimli mashqlar, ilmiy yondashuv va pedagogik tajriba asosida olib boriladi. Bugungi kunda vokal san'atida ijrochilik mahoratini rivojlantirish nafaqat amaliy tajriba, balki nazariy, ilmiy hamda texnologik yangiliklarga tayanadi. "Shu o'rinda "Vokal " so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak. "Vokal" so'zining lug'aviy ma'nosi bizda qadimdan mavjud bo'lgan "qo'shiq, ashula" degan musiqiy atamalarga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, vokal istilohi tarixiy-ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarning ajralmas bir bo'lagi sifatida qadim zamonlardan beri yashab kelmoqda. O'zbek xalqi madaniy hayoti XIX asrning ikkinchi yarmidan kirib kelib, san'atning ijrochilik janrini ifodalay boshlagan bu tushuncha Yevropada uzoq tarixga ega bo'lib, uning negizi antik davr diniy marosimlari, ijro jarayoniga borib taqaladi". [6.B.5]

"Xonandani tarbiyalash jarayonida o'qituvchi turli usullardan foydalanadi. Birinchi o'rinda vokal eshitishni tarbiyalash va mukammallashtirib borishga nazorat bilan barcha vokal sifatlarini rivojlantirish turadi. Talabada xonandalik jarangdorligini to'g'ri tashkil etish haqidagi tasavvurni ishlab chiqish zarur. Ta'lim doimo musiqa materiallari mashq, vokal va badiiy asarlar asosida olib boriladi. To'g'ri tanlangan musiqiy manba tovushni tarbiyalaydi". [5.B.12]

Ijrochilik mahoratini oshirish jarayonida nazariy bilimlar bilan birgalikda amaliy tajribaning uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Faqat texnik

<sup>2</sup> O'ZBEK MILLIY ESTRADA SAN'ATIGA ULKAN HISSA QO'SHGAN O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI BOTIR ZOKIROV IJODIGA BIR NAZAR Shomuradov Anvar Islomovich Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

jihatdan mukammal ijroning o'zi badiiy yetuklikni kafolatlamaydi. Vokal san'atining mohiyati emotsional ifoda, ma'no chuqurligi va obrazli tafakkurda namoyon bo'ladi.

Shu bois vokal ijrochisi o'z ustida ishlash jarayonida nafaqat ovoz texnikasini, balki musiqiy savodxonligini, dramaturgik tafakkurini, estetik dunyoqarashini ham rivojlantirib borishi lozim<sup>3</sup>.

Botir Zokirov ijodi ko'p qirrali bo'lib, unda Sharq va G'arb musiqiy an'analari uyg'unlashgan. Uning repertuaridan o'zbek xalq qo'shiqlari, zamonaviy estrada asarlari, shuningdek, jahon musiqasidan namunalar o'rin olgan.

Botir Zokirov ijrochiligiga xos asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

Keng diapazonli ovoz – uning ovozi turli registrlarda erkin harakatlana olgan.

Emotsional ifoda – har bir asarni chuqur his etib, tinglovchiga yetkaza olish qobiliyati.

Aniq diksiya – matnni ravon va tushunarli ijro etish.

Sahna madaniyati – harakat, mimika va umumiy obraz yaratishdagi mukammallik. Mazkur jihatlar yosh xonandalar uchun nafaqat texnik, balki badiiy mahoratni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Yosh xonandalar vokal rivojida Zokirov asarlarining o'рни:

Yosh ijrochilar uchun vokal tayyorgarlik jarayoni murakkab va ko'p bosqichli hisoblanadi. Bu jarayonda to'g'ri repertuar tanlash katta ahamiyatga ega. Botir Zokirov ijodidagi asarlar quyidagi sabablar tufayli samarali o'quv material bo'la oladi:

#### 1. Vokal texnikani shakllantirish:

Botir Zokirov ijrosidagi qo'shiqlar turli vokal elementlarni o'z ichiga oladi:

legato (uzluksiz kuylash),

staccato (uzib-uzib kuylash),

dinamika (ovoz balandligi o'zgarishlari),

nafasni to'g'ri taqsimlash.

Bu elementlar yosh xonandaga ovoz ustida ishlash, diapazonni kengaytirish va ovoz barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

#### 2. Musiqiy eshituv va intonatsiyani rivojlantirish:

Botir Zokirov ijodidagi murakkab melodik chiziqlar va boy harmoniyalar yosh ijrochining musiqiy eshituvini rivojlantiradi. Ayniqsa, yarim tonlar va nozik ohang o'tishlarini aniq ijro etish orqali intonatsiya tozaligi shakllanadi.

#### 3. Emotsional ifodani shakllantirish:

Har bir qo'shiqda muayyan kayfiyat va obraz mujassam bo'ladi. Botir Zokirov asarlarini o'rganish orqali yosh xonandalar: asar mazmunini anglash, uni hissiy jihatdan yetkazish, tinglovchi bilan "muloqot" qilish ko'nikmalarini egallaydi.

<sup>3</sup> YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/yo 92 BOTIR ZOKIROV IJODI: MUSIQA, TEATR VA MADANIY MEROSI Norsunatova Sevinch O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI "Musiqiy – Nazariy va tarixiy fanlar" kafedrasida 2-bosqich bakalavriat talabasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.18045897>

Yosh xonandalar bilan ishlashda Botir Zokirov asarlaridan foydalanish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Bosqichma-bosqich o'rganish – dastlab oddiyroq qo'shiqlardan boshlash.
2. Tinglash va tahlil qilish – original ijroni diqqat bilan o'rganish.
3. Texnik mashqlar bilan uyg'unlashtirish – har bir qo'shiqni vokal mashqlar bilan boyitish.
4. Individual yondashuv – har bir xonandaning ovoz xususiyatini hisobga olish.
5. Sahna amaliyoti – o'rganilgan asarlarni sahnada ijro etish orqali tajriba orttirish.

Botir Zokirov ijodi o'zbek vokal san'atining bebaho merosi hisoblanadi. Uning asarlari yosh xonandalar uchun nafaqat vokal texnikani rivojlantirish, balki ijrochilik mahoratini mukammallashtirishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Botir Zokirov ijodini chuqur o'rganish va uni ta'lim jarayoniga keng joriy etish orqali zamonaviy, yetuk va milliy ruhdagi ijrochilarni tarbiyalash mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev A. “Vokal san'ati va ijrochilik madaniyati asoslari”. - Toshkent: O'zbekiston davlat konservatoriyasi nashriyoti, 2018. - 152 b.
2. Karimova M. “Vokal pedagogikasida texnik tayyorgarlik masalalari”. - Toshkent: Fan va ta'lim, 2020. - 138 b.
3. Zokirov B. “Vokal san'atida nafas olish texnikasining o'rni” // San'at va madaniyat jurnali. - 2019. - № 3. - B. 45-52.
4. Nuriddinova N. “Musiqqa ta'limi nazariyasi va amaliyoti”. - Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, 2021. - 210 b.
5. Qahhorov N. “Vokal asoslari” (Ovoz va fortepiano uchun). - Toshkent: “Iqtisodiyot-Moliya” nashriyoti, 2008. - 314 b.
6. Rahimov E. “Vokal”. - Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2017. - 188 b.
7. Шевченко И. «Методика обучения академическому вокалу». - Москва: Академический проект, 2017. - 192 с.
8. Петров А. «Роль дыхания и резонанса в формировании певческого звука» // Вестник музыкальной педагогики. - 2016. - № 4. - С. 22-28.